



## TARIXIY VA HAMISHA NAVQIRON SAMARQANDDA UNUTILMAS FORUM

Samarqand shahrida 5T Youth Forum o'z faoliyatini boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga oid beshta muhim tashabbuslarini ilgari surgan holda "5T Yoshlar forumi" Respublika Konferensiyasi Samarqand viloyati hokimligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Samarqand viloyat Kengashi, "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "My Business" innovatsion markazi, "DD General Insurance" sug'urta kompaniyasi, "000 Dream travel study consulting", "Grantlar.uz" ta'lim platformasi hamkorligida 19-20 oktabr sanalarida Samarqand shahrida o'tkazildi. Ushbu forum yoshlar uchun chin ma'noda yangi imkoniyatlar, do'stlar, o'zaro fikr almashinuvi orqali yangi bilim va ko'nikmalarga hamda qiziqarli tanishuvlarga boy bo'lgan unutilmas forum bo'ladi degan umiddamiz. Ishtirokchilarimizni forum doirasida qiziqarli debatlar, press konferensiya, Sehrli Fonuslar kechasi, Lottery Cap loyihasida ishtirok etib ko'plab sovg'alarga ega bo'lish,

Samarqand shahri bo'ylab sayohat, "Konsert dasturi", Mevalar dasturxonasi kabi ko'ngilochar dasturlar kutib qolmoqda. Forumning ko'lamiga to'xtaladigan bo'lsak, hozirda telegram, Facebook hamda Instagram tarmoqlarida qariyb 75 000 dan ortiq auditoriyaga targ'ibot ishlari amalga oshirilmoqda.



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI/dsmi.uz

Forumning rasmiy sahifalarida esa umumiy 5 000 kishiga yaqin (joriy ko'rsatkich) auditoriya to'plangan. Bundan tashqari, forum bevosita bir nechta davlat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi. Forumni sur'atga olish uchun "Madaniyat va ma'rifat", "Samarqand" TRK hamda "MY 5" kabi telekanallar bevosita ko'rsatuv tayyorlashadi. Forum tashkilotchilari tomonidan Samarqand shahri sayyohlar qo'llanmasi, forum ishtirokchilari qo'llanmasi, turli brashyuralar va konferensiya materiallari to'plami chop

etilgan (jami 2 000 nusxada).



O'ZDSMI – O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI/dsmi.uz

Forumda Respublikamizning 500 nafar faol va iqtidorli yoshlari ishtirok etishi kutilmoqda. Bundan tashqari ushbu forum turli muzokaralar hamda o'quv dasturlarini o'z ichiga oladi. Umid qilamizki ushbu olingan bilim va ko'nikmalar, yangi do'stlar birgalikda yoshlarimizga yanada yangi cho'qqilarni zabt etishda ko'mak beradi. Ushbu forumda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalari **Aziza Mavlonova, Gulrux Yo'ldosheva** faol ishtirok etishdi.

**O'zbekiston davlat san'at  
va madaniyat instituti  
matbuot xizmati**